Abstract. One of the key factors of sustainable regional development is the economic potential of regions. In general terms, economic potential represents the material basis for the functioning of both regional and national economies. Therefore, the problem of determining the scale of economic potential and its methodological interpretation is of great importance both for scientific research and for the development of practical analytical tools. The scale of a region’s economic potential serves as an important indicator for assessing the competitiveness of regions and the country as a whole, their investment attractiveness, the development opportunities of various sectors of the national economy, as well as the level of enterprise capitalization. At the same time, from a scientific and theoretical perspective, the category of economic potential, despite its widespread use, remains insufficiently explored and requires further research. Since the concept of economic potential includes numerous elements and reflects complex and multifaceted economic processes and relationships, the issue of interconnection and mutual influence between individual regions and the national economy as a whole remains highly relevant for researchers. The article analyzes the role of economic potential in ensuring sustainable regional development.

Key words: region; sustainable regional development; socio-economic development; economic potential; regional competitiveness; methods of potential assessment.

Аннотация. Одним из ключевых факторов устойчивого развития регионов является их экономический потенциал. В общем понимании экономический потенциал представляет собой материальную основу функционирования как региональной, так и национальной экономики. В связи с этим проблема определения объёма экономического потенциала и его методологической интерпретации имеет важное значение как для научных исследований, так и для формирования инструментов практического анализа. Масштаб экономического потенциала региона выступает важным показателем оценки конкурентоспособности регионов /и государства в целом, их инвестиционной привлекательности, возможностей различных отраслей национальной экономики, а также уровня капитализации предприятий. В то же время с научно-теоретической точки зрения категория экономического потенциала, несмотря на её широкое применение, остаётся недостаточно изученной и требует дальнейшего исследования. Поскольку понятие экономического потенциала включает множество элементов и отражает сложные и многогранные экономические отношения и процессы, проблема взаимосвязи и взаимного влияния отдельных регионов и национальной экономики в целом остаётся актуальной для исследователей. Данная статья посвящена анализу указанных вопросов.

Ключевые слова: регион; устойчивое развитие региона; социально-экономическое развитие; потенциал; экономический потенциал; методы оценки потенциала.

## KIRISH

Zamonaviy sharoitda davlat darajasida mintaqaviy rivojlanishga tobora koʻproq eʼtibor qaratilmoqda. Bu butun mamlakat boʻylab barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashda hududlarning alohida roli va ahamiyati haqida umumiy tushuncha bilan bogʻliq. Bu, ayniqsa, turli iqtisodiy subyektlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan farqlanish juda aniq boʻlib qolgan va bu oʻz navbatida Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyotiga toʻsqinlik qiluvchi omil boʻlib xizmat qiladigan vaziyatda juda muhimdir.

Zamonaviy iqtisodiyotning va qator sotsiologik va siyosiy fanlarning yetakchi oʻrganilayotgan tadqiqot obyektlaridan biri bu ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishdir. Ilmiy atamashunoslik nuqtai nazaridan yondashadigan boʻlsak, bu mamlakat aholisining turmush darajasini sifat jihatdan yaxshilash boʻlib, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni, ish haqini va xizmat koʻrsatish sifatini tubdan takomillashtirishni anglatadi. Soʻnggi oʻttiz yil ichida milliy iqtisodiyotimizda yuz bergan koʻplab tarkibiy oʻzgarishlar, olib borilgan islohotlar shuningdek, har qanday zamonaviy koʻrinishdagi mamlakatlarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tufayli sodir boʻlayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni baholash juda murakkabdir. Bundan tashqari, mamlakatimiz sarhadlari, hududlaridagi iqtisodiy vaziyat, ishlab chiqarish va inson resurslari salohiyati shunchalik keng va turli tumanki, ularni qiyosiy taqqoslash imkoniyatini beradigan maʼlumotlarga va obyektiv tasavvurga ega boʻlish kerak boʻladi. Shu munosabatdan, buni alohida hudud aholisi turmush darajasi va investitsion jozibadorligini oshirish, milliy iqtisodiyotga taʼsir qiluvchi hududviy omillarini inobatga olish kerak boʻladi.

Hududlarni barqaror rivojlantirishning strategik yoʻnalishini tanlash va kompleks rejasini shakllantirishda hududning iqtisodiy salohiyatini baholamasdan turib amalga oshirish mushkul. Bu jarayonda hudud iqtisodiyotining turli omillarini resurs taʼminoti va tabiiy-geografik vaziyatdan tortib ishlab chiqarish, innovatsion imkoniyatlari va mehnat salohiyatigacha taʼsirini hisobga olish zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy tizimning ishlashi faqat maʼlum bir salohiyat mavjud boʻlgandagina mumkinligi barchamiz uchun aniq va ravshan. Ammo turli iqtisodchilar bu tushunchaga turlicha talqin qilishadi. Koʻpgina hollarda, iqtisodiy salohiyat maqsadli funksiyasini amalga oshirishda maʼlum miqdorda mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyati sifatida tushuniladi. Salohiyatni baholash u yoki bu qiymat koʻrsatkichiga bogʻliq boʻlib, bunga qoʻshilish deyarli mumkin emas. Iqtisodchi olimlardan biri G.M.Tatevosyanning fikricha, salohiyat - bu tizimning muayyan imkoniyatlari, resurslari va qobiliyatlarining mavjudligini bildiruvchi koʻrsatkichlar majmuasi boʻlib, ularni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish va resurslarni olish, shuningdek, tashqi muhit xususiyatlarini mos ravishda oʻzgartirish imkonini beradi.[1] Yana bir xorijlik iqtisodchi olimlardan biri M.Kondratyevning fikricha, “Hududning resurslari, manbalari, vositalari va zaxiralari, shuningdek, ularni aniq maqsadlarga erishish maqsadida iqtisodiy muomalaga jalb qilish usullaridir”. [2]

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda uning sinonim iboralarini ham uchratish mumkin. Adabiyotlarda va turli iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari boʻyicha nashr qilingan ishlanmalarda buning guvohi boʻlishimiz mumkin. Xorijlik iqtisodchi olimlardan B.Filipyak, M.Tarchingskiy-Lunevskalar salohiyatni aniqlashga eʼtibor qaratishib uni aniqlashda davlat yoki biron bir hududning imkoniyatlari, samaradorligi yoki resurs imkoniyatlari, ishlab chiqarish quvvatidir, - deb koʻrsatib oʻtishadi.[3] Xuddi shunday yondashuvlar talqinini xorijlik yana bir qator olimlardan Lyubinska, Franek, Bedzishaklarning ilmiy tadqiqotlarida ham kuzatish mumkin. [4] Yana bir guruh xorijlik iqtisodchi olimlardan V.Yanash va K.Koziol-Nadolnalar hududlardagi mavjud resurslar aktivlar boʻlsada, salohiyatning ikkinchi omili ulardan foydalanish qobiliyatidir. [5] Ushbu yondashuv salohiyatning bir qator muhim boʻlgan omillarni hisobga olgan holda murakkab bir iqtisodiy kategoriya ekanligini amalda tasdiqlaydi. Salohiyat koʻplab tarkiban oʻziga xos omillardan iborat deb ham mulohaza qilish mumkin. Maʼlum bir vaziyatlarda salohiyatga torroq yoki kengroq nuqtai nazardan ham yondashish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, bu umumiy kategoriya sifatida salohiyat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, oʻziga xos salohiyatlarning amaldagi natijasi ekanligini anglash qiyin emas.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan A.Nizomov, N.Namozova, U.Amonovlar tomonidan nashr qilingan adabiyotda “Salohiyat atamasi biror subyektda yashirin, oʻzini hali toʻliq namoyon qilmagan imkoniyatlarining mavjudligini koʻratadi hamda bu imkoniyatlar obyektiv yoki subyektiv shart-sharoitlarga muvofiq, ularning faoliyat sohasida oʻzini namoyon etmagan boʻladi.[6] Boshqa bir guruh iqtisodchi olimlardan X.Asatullayev, O.Astanakulov, N.Saidaxmedova va boshqalar hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda investitsion faollikni olib borish kerakligi hamda bu jarayon ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini oʻz nashr qilgan maqolalarida koʻrsatib oʻtishadi.[7]

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan biri E.A.Illarionova davlat, xoʻjalik yurituvchi subyektlar va aholi manfaatlarini koʻzlab maʼlum bir hududiy birlikning barqaror rivojlanishini taʼminlash uchun faol foydalanila-digan yoki osongina

safarbar qilinishi va ishga tushirilishi mumkin boʻlgan barcha resurslar majmuasini anglatadi, deb e'tirof etadi.[8] Bundan koʻrinadiki, bunday yondashuvni tahlil qilish orqali fikrimizcha, hududning iqtisodiy salohiyati ikkita komponentni ya'ni resurs bazasi va ushbu resurslarni samarali boshqarishni oʻz ichiga olgan degan xulosa qilish imkonyatini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ilmiy tadqiqot jarayonida iqtisodiy salohiyat tushunchasining koʻp tomonlama yondashuvga asoslangan umumiy ta'rifini ishlab chiqishda qiyosiy tahlil, tarixiylik, dialektika, induksiya va deduksiya metodlaridan, uning tarkibiy elementlari va omillarini aniqlashda analiz-sintez, guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Maqolaning "Tahlil va natijalar" qismini toʻliq lotin alifbosiga oʻgirdim. Matn mazmuni va tarkibiy tuzilishi asl holaticha saqlandi:

## TAHLIL VA NATIJALAR.

Jamiyatning hududiy tashkil etilishining asosiy birligi hudud ekanligiga koʻra, uni davlatning ijtimoiy-iqtisodiy majmuasining yagona makon doirasidagi mustaqil va mahalliylashtirilgan elementi sifatida ta'riflash mumkin. Bu ma'lum bir xususiyatlarga ega, jumladan: yagona, cheklangan makon, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy tuzilmaning bir xilligi, infratuzilmaning mavjudligi, oʻziga xos tabiiy va madaniy xususiyatlari, shuningdek, oʻziga xos faoliyat mezonlari tizimidir. Shu bilan birga, mavjud resurslar va imkoniyatlarga muvofiq hududni barqaror rivojlanishining sifati va samaradorligi mamlakat iqtisodiy oʻsishi uchun asosiy shartlardan biridir. Hududning iqtisodiy salohiyatini ta'riflashda uning davlat iqtisodiy farovonlik darajasiga qoʻshayotgan hissasini aniqlashtirish hamda uning faolligini oshirish kerak. Bu esa avvalo hudud iqtisodiyotining imkoniyat va zaxiralari bilan belgilanadi.[9] Shu munosabatdan, har bir hududning iqtisodiy salohiyatini baholash mamlakatning davlat iqtisodiy rivojlanish strategiyasini tanlashda hal qiluvchi omil boʻlib xizmat qiladi. Bu aholi turmush darajasi va ishlab chiqarish uchun zarur boʻlgan sharoitlarni yaratish maqsadida iqtisodiy faoliyatning imkoniyatlarini aniqlash, zaxira va resurslarning xususiyatlari va yoʻnalishlarini belgilash imkoniyatini beradi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, hududning iqtisodiy salohiyatini raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarning iqtisodiy natijalarini ishlab chiqish, aholi ehtiyojlarini samarali qondirish, umuman davlat iqtisodiy farovonligiga hissa qoʻshish va kelajak avlod uchun mavjud boʻlgan yoki jalb qilinishi mumkin boʻlgan resurslar majmuasi sifatida koʻrish mumkin. Hududning iqtisodiy salohiyati xususiyatlari va barqaror rivojlanish darajasi koʻplab omillar, xususan, uning joʻgʻrofiy joylashgan joyi, tabiiy resurslar salohiyati, infratuzilmasi, tarmoqlararo va hududlararo munosabatlarning izchillik bilan rivojlanish darajasi orqali belgilanadi. Hududni barqaror rivojlanishini boshqarish doirasida iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanish va uni amalga oshirish muhim oʻrin tutadi. Shunga koʻra, quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib koʻrsatish oʻrinlidir:

- hududning resurs ta'minoti;
- hududiy rivojlanishning samarali elementlari;
- mutanosib rivojlanish;
- hududiy salohiyatni baholash metodologiyasi.[10]

Hudud salohiyatining resurs komponenti hududda mavjud boʻlgan va foydalanishi mumkin boʻlgan resurslar majmuasi boʻlib, uning samaradorligi hududning oʻz resurslaridan imkon qadar samarali foydalanish quvvatini koʻrsatadi. Shuning uchun, davlat iqtisodiyoti doirasida alohida hududning iqtisodiy salohiyati ma'lum bir hududda mavjud boʻlgan resurslarning butun davlatga va xususan, boshqa hududlarga daromad keltirish imkoniyatidir. Mavjud resurslarning xususiyatlariga qarab, bu imkoniyat va salohiyat mavjud yoki mavjud emasligi, shuningdek, amalga oshirilmagan ham boʻlishi mumkin.

Hududning iqtisodiy tizim sifatida salohiyatini baholashga qiymat jihatdan yondashadigan boʻlsak, ishlab chiqarish salohiyatining pul ekvivalentini yoki Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) iqtisodiy faoliyatning natijasi sifatida qarash mumkin. Biroq, bunday yondashuvga tayanib qolish fikrimizcha toʻgʻri emas, chunki tadqiqotchilar har qanday faoliyatning, shu jumladan uning foydalaliligini oʻlchash mezon va sifat koʻrsatkichlarini aniqlash muammosiga duch kelishlari turgan gap. Shu munosabatdan hududning iqtisodiy salohiyatini baholash uchun bir nechta turlarini alohida ajratib koʻrsatishimiz maqsadga muvofiqdir:

- hududdagi muammolarni hal qilish uchun mavjud boʻlgan resurslardan foydalanish imkoniyati;
- hududda innovatsiyalarni yaratishga qodir boʻlgan iqtisodiy salohiyat;
- hududning qoʻshimcha iqtisodiy samara bera olmaydigan resurslari;
- ma'muriy toʻsiqlar;
- hududning umumiy iqtisodiy salohiyati.

Ikkinchi tarkibda esa quyidagi elementlarni ajratishimiz mumkin:

- hududning tabiiy resurslari, xom ashyo va zaxiralarining umumiy yigʻindisi;
- hududda iqtisodiy faoliyat subyektlarining ishlab chiqarish natijalari;

- aholi iste’molchilik ehtiyojlari;
- hududning infratuzilma bilan to‘yinganlik darajasi;
- hududning ilmiy va texnik innovatsion rivojlanganlik darajasi;
- iqtisodiy faol aholi soni, uning yoshi va ma’lumot darajasi;
- hududidagi iqtisodiy institutlar;
- hudud mahalliy byudjet tizimi.

Xususan, G‘arbiy Yevropada qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar tabiiy-resurs salohiyatining ta’sirini va uning samarali ishlatilishini sezilarli darajada kam baholaydilar, rivojlanayotgan mamlakatlar tadqiqotchilari esa, aksincha, unga ortiqcha ahamiyat beradilar. AQSh va Kanadada keng qo‘llaniladigan yondashuv doirasida institutsional salohiyat yetarlicha o‘rganilmagan va iqtisodiy rivojlanish samaradorligini belgilovchi omillar tuzilishiga umuman kiritilmagan.

Xususan, G‘arbiy Yevropada qo‘llaniladigan zamonaviy metodologiyalar tabiiy resurs salohiyatining ta’sirini va undan foydalanish samaradorligini kam baholaydi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tadqiqotchilar esa, aksincha, unga haddan tashqari urg‘u berishadi. AQSh va Kanadada keng tarqalgan yondashuv institutsional salohiyatni yetarlicha o‘rganmaydi va uni iqtisodiy rivojlanish samaradorligini belgilovchi omillar doirasiga kiritadi.[11]

Iqtisodchi olimlardan F.Klotsvog va I.Kushnikovalar ma’lum bir resurs birligini olish uchun qancha sarflar mablag‘ini hisoblash va undan keyin olinadigan miqdorni resurs hajmiga ko‘paytirish taklif etiladi. YalMning haqiqiy qiymatini iqtisodiy salohiyatning olingan qiymati bilan taqqoslash orqali ma’lum bir subyekt uchun potensialdan foydalanish koeffitsientini hisoblash mumkin.[12] Hududni barqaror rivojlanishini baholashning xususiy ko‘rsatkichlarini, jumladan YaHMni, iqtisodiy faol aholi sonini va sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lganlarning ulushini hamda faol xo‘jalik yurituvchi subyektlar sonini aniqlash asosida amalga oshiriladi.[13] Shunday qilib, hudud iqtisodiy salohiyatini uslubiy baholashni shakllantirish yoki tanlashda quyidagi fikrlarni hisobga olish kerak:

- hudud iqtisodiy salohiyatini baholashda ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirish xususiyatlarini xarakterlovchi jihatlarini hisobga olish kerak;
- davlatning yagona iqtisodiy va axborot makonining bir qismi sifatida faoliyat yuritish;
- barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi omillarni hisobga olish;
- tabiiy resurs komponentlarini kiritish;
- hududning ekologik holatini hisobga olish;
- hudud iqtisodiyotining jadal o‘sishiga, aholisining turmush darajasini o‘sishiga hissa qo‘shadigan, iqtisodiy jihatdan foydali sanoat tarmoqlarining ta’sirini aniqlash zarur.

Hudud salohiyatini baholashda kompleks yondashuvni amalga oshirish zarur, jumladan, ko‘rsatkichlar tarkibiga hududning ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarining talab elastikligi, resurs salohiyati, aholi jon boshiga YalM va uning dinamikasi, mehnat salohiyati, investitsion jozibadorlik darajasi, innovatsion faollik darajasi, alohida olingan sanoat tarmoq korxonalarining intensivlashuv darajasini hisobga olish kerak.

Shunday qilib, hududning barqaror rivojlanishini baholashda qo‘llaniladigan usullardan qat’iy nazar, iqtisodiy salohiyatga kiritilgan barcha elementlarni baholab chiqish zaruriyatini tug‘diradi.




1-rasm. Hududlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan sanoatni texnologik bazasini modernizatsiyalash modeli

1-rasmda keltirilganidek, bugungi kunda hududlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan sanoatni texnologik bazasini modernizatsiyalashda faqatgina iqtisodiy salohiyati bilan birga hududlarning sanoat salohiyatini ham nazardan chetda qoldirmaslik zarurligini koʻrsatadi. Bunda albatta hududning ichki imkoniyalaridan kelib chiqib, texnologik bazasini modernizatsiyalash, infratuzilmasini qaytadan koʻrib chiqish, ularni qoʻllab quvvatlash hamda ilm-fan va texnika bilimlarini, taʼlim sohasini ham rivojlantirish kerak boʻladi. Shuningdek, hududlarning barqaror rivojlanishiga turtki boʻluvchi sanoat sohasining rivojlantirishda quyidagilarga eʼtibor qaratish lozim:

- boshqaruv jarayoniga yangi qonunchilik bazasini kiritish;
- mutaxassislarni tayyorlashda yangi taʼlim texnologiyalarni qoʻllash;
- innovatsion mahsulot va xizmatlar, innovatsion texnologiyalar, ixtiro-lar, patentlar, loyihalarga litsenziyalar, nou-xau.

Mazkur chora-tadbirlarning amalda qoʻllanilishi hududlarning kelajakda barqaror rivojlanishiga muhim poydevor vazifasini bajaradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda biz tomonimizdan oʻrganilgan yondashuvlarning barchasida iqtisodiy salohiyat mohiyatan bir yoki ikki tomonlama yondashuv asosida ochib berilgan boʻlib, uning mazmunini fikrimizcha toʻlaroq ochib bera olmaydi. Iqtisodiy salohiyat tushunchasi murakkab, dinamik va koʻp darajali kategoriya hisoblanib, oʻzida resurslar hajmi va sifati, ichki va tashqi omillar, rivojlanish maqsadlari hamda erishilgan natijalarni oʻzida mujassamlashtiradi. Shu bois, iqtisodiy salohiyat mazmunini aniqlashda koʻp qamrovli, kompleks yondashuvni berish talab etiladi. Buni amalga oshirishda tizimli yondashuvni qoʻllash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari iqtisodiy salohiyat tarkibiy elementlarining oʻziga xos xususiyatlarini ham eʼtibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Iqtisodiy salohiyat hududning aholisi turmush darajasini yaxshilash maqsadida resurslardan, mavjud va kelajakdagi iqtisodiy tizimning oʻziga xos xususiyatlaridan, joʻgʻrofiy joylashuvi hamda tabiatdan samarali va oqilona foydalana olishga boʻlgan imkoniyati va quvvati hisoblanadi. Uning mazmunini tizimli aniqlashda ishlab chiqarish salohiyati, tabiiy-ekologik salohiyat, ijtimoiy-madaniy salohiyat va moliyaviy salohiyat elementlariga ajratib oʻrganish kerak.

Shunday qilib, hududlarning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish va roʻyobga chiqarish omillarini tasniflanishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga yoki aksincha, yomonlashishiga turli omillarning taʼsirini tizimli ravishda oʻrganish imkoniyatini beradi. Bu hududning barqaror rivojlanish darajasini omillar kesimida modellashtirish uchun mustahkam poydevor boʻlib xizmat qiladi. Shuningdek, hududning iqtisodiy salohiyatining tarkibiy elementlarini va uning samaradorligini oshirishning ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hududning barqaror rivojlanishi har tomonlama boʻlmaganda yuzaga keladigan asosiy omillar uning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlariga salbiy taʼsir koʻrsatishini taʼkidlashimiz kerak. Chunki, bugungi kunda hududlarga ijtimoiy-madaniy yondashuv uning rivojlanishini har tomonlama koʻrib chiqishni talab qiladi. Shuning uchun, hududlarning iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish va amalga oshirish omillarining mavjud tasnifini ijtimoiy-madaniy jihatdan takomillashtirish juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Татевосян, Г.М. Сравнительный анализ экономических показателей регионов России / Г.М. Татевосян, О.М. Писарева, С.В. Седова // Экономика и математические методы. - 2014. - Т. 40. - №4. - С. 57.
2. Кондратьева М.Н. Сравнительная оценка и определение экономического потенциала региона / М.Н. Кондратьева, Т.Н. Рогова, Е.В. Баландина // Региональная экономика: теория и практика. 2017. № 2 (437). С. 267-бет.
3. Filipiak, B., Tarczyńska-Łuniewska, M. (2016). Potencjał jednostki samorządu terytorialnego – próba systematyzacji pojęciowej i metodycznej. Finanse Komuinalne, 1–2.
4. Lubińska, T., Franek, S., Będzieszak, M. (2017). Potencjał dochodowy samorządu w Polsce. Difin, Warszawa.
5. Janasz, W., Kozioł-Nadolna, K. (2021). Innowacje w organizacji. Warszawa: PWE.
6. Низомов А.Б., Намозова Н.Дж., Амонов У.Н. Микроиқтисодиёт. -Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2000 й. – 21 б.
7. Асатуллаев Х.С., О.Астанакулов, Н.Саидахмедова, О.Эргашев // 2019. Стратегическое обеспечение учета инвестиционного процесса в инновационной отрасли. Журнал передовых исследований в области права и экономики, Том X, осень, 6(44): 1877 – 1883. DOI: 10.14505/jarle.v10.6(44).30. Доступно по ссылке: http://journals.aserspublishing.eu/jarle/index.
8. Х. Асатуллаев, О. Астанакулов, Н. Саидахмедова, Н. Батирова Оценка энергоэффективности национальной экономики с точки зрения инвестиций в зеленую Экономические анналы-XXI, https://doi.org/10.21003/ea.V189-03.
9. Илларионова Е.А. Экономический потенциал региона: содержание, оценка, пред посылки сбалансированного развития. / автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук (08.00.05). - Курск: Старооскольский технологический институт им. А.А. Угарова, 2015

10. Зотов, Б.Н. Расчетная оценка экономического потенциала региона // Актуальные проблемы управления социально-экономическими процессами в регионе: сб. докладов научно-практич. конф. - Калуга, 2023.
11. Никулина, Е.В., Чистникова, И.В., Орлова, А.В. Экономический потенциал региона и оценка эффективности его использования // Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия: Информатика. – 2022. – Выпуск №13-1 (132) / том 23. – С. 235.
12. Булгакова Л.Н. Методологические аспекты оценки социально-экономического потенциала региона // [Электронный источник]. Режим доступа: http://uecs.ru/uecs-37-372012/item/1004-2012-02-01-05-52-52 (дата обращения 14.10.2016).
13. Клоцвог, Ф. Ресурсный потенциал субъектов Федерации и его использование / Ф. Клоцвог, И. Кушникова // Экономист. - 2021. - №12. - С. 13 - 17.
14. Панкрухин А.П. Маркетинг территорий. - СПб.: Питер, 2024. - 238 с.

# YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 3**


© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz